



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
3. Пётр Чублуков НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
4. Shahlo Ubaydullayeva O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
5. Mirhomid Mirakbarov O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
6. Mirjalol Abdullayev SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
7. Abdillajon Pazilov BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
8. Mashhura Burxanova ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
9. Равшан Хомитов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
10. Iqbol Jabbarova РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.y).....	57
11. Rabiyajon Ibragimova QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



Shahlo Abdullayevna Ubaydullayeva,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti
t.f.f.d. (PhD), dotsent
E-mail: ubaydullayeva_shahlo@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6941-7300>

**O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA
SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI
YARMI MISOLIDA)**

For citation: Shakhlo A. Ubaydullaeva. WOMEN’S ACTIVITIES IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF UZBEKISTAN AND ISSUES OF MATERNAL AND CHILD HEALTH PROTECTION (BASED ON THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845913>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimi rivoji, ayniqsa ona va bola salomatligini muhofaza qilishda xotin-qizlar rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Respublikada tibbiy xizmatning cheklanganligi, infratuzilmaning zaifligi va qishloq hududlarda tibbiy kadrlar yetishmasligi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan. Maqolada Musallam Sharafutdinova va Bibioysa Xo‘jambergenova kabi pediatr va akusher ayollar faoliyati misolida xotin-qizlarning tibbiyot tizimidagi ahamiyati ochiq yoritiladi. Shuningdek, ularning nafaqat amaliyotchi, balki profilaktika, targ‘ibot, ilmiy tadqiqot va jamoatchilik faoliyati orqali aholi salomatligini yaxshilashdagi hissasi tahlil qilingan. Maqola xotin-qizlarning tibbiyotdagi o‘rni, fidoyiligi va kasbiy sadoqatini ko‘rsatib, ularning respublikaning tibbiy va ijtimoiy rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar faoliyati, feldsher-akusher punktlari, tibbiy infratuzilma, ayol shifokorlar, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, ona va bola salomatligi, profilaktik tibbiyot, O‘zbekiston SSR.

Убайдуллаева Шахло Абдуллаевна,
Институт военной авиации Университета военной
безопасности и обороны Республики Узбекистан,
д.ф.и.н. (PhD), доцент
E-mail: ubaydullayeva_shahlo@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6941-7300>

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В МЕДИЦИНЕ УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ
ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ МАТЕРИ И РЕБЁНКА (НА ПРИМЕРЕ ВТОРОЙ ПОЛОВИНЫ
XX ВЕКА)**

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию роли женщин в медицине и системе здравоохранения Узбекистана в послевоенные годы, особенно в области охраны здоровья матери и ребенка. Проанализированы проблемы, связанные с ограниченностью медицинского обслуживания, слабым развитием инфраструктуры и нехваткой медицинских кадров в сельских районах. В статье на примере деятельности педиатров и акушерок, таких как Мусаллам Шарафутдинова и Бибиайша Ходжамбергенова, подробно раскрывается значимость женщин в системе здравоохранения. Также анализируется их вклад в улучшение здоровья населения через практическую деятельность, профилактику, просвещение, научные исследования и общественную работу. Статья демонстрирует роль женщин в медицине, их преданность профессии и показывает значительный вклад, который они внесли в медицинское и социальное развитие республики.

Ключевые слова: деятельность женщин, фельдшерско-акушерские пункты, медицинская инфраструктура, женщины-врачи, акушерство и гинекология, педиатрия, здоровье матери и ребенка, профилактическая медицина, Узбекская ССР.

Ubaydullaeva Shakhlo Abdullayevna,

Institute of military aviation of the University of military
Security and Defense of the Republic of Uzbekistan

PhD, Associate Professor

E-mail: ubaydullaeva_shahlo@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6941-7300>

**WOMEN'S ACTIVITIES IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF UZBEKISTAN
AND ISSUES OF MATERNAL AND CHILD HEALTH PROTECTION (BASED ON THE
SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY)**

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the role of women in medicine and the healthcare system of Uzbekistan in the post-war years, particularly in the field of maternal and child health. The article analyzes problems related to limited medical services, underdeveloped infrastructure, and a shortage of medical personnel in rural areas. Using the examples of pediatricians and midwives such as Musallam Sharafutdinova and Bibioysha Khojambergenova, the article highlights the significance of women in the healthcare system. It also examines their contribution to improving public health through practical work, prevention, education, scientific research, and community engagement. The study demonstrates the role of women in medicine, their dedication to the profession, and their substantial contribution to the medical and social development of the republic.

Index Terms: women's activity, role of women, feldsher-midwife stations, medical infrastructure, female doctors, obstetrics and gynecology, pediatrics, maternal and child health, preventive medicine, Uzbek SSR.

Dolzarbligi:

XX asning 50-yillarida O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi og'ir ahvolda bo'lib, ayniqsa tog'li va chegaraviy hududlarda tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi ancha past edi. Tibbiy muassasalar tarmog'i cheklangan, yo'l va transport infratuzilmasi rivojlanmaganligi aholining shifokorlarga o'z vaqtida murojaat qilish imkoniyatini jiddiy chekladi. Shu bois feldsher-akusher punktlari asosiy tibbiy yordam manbai bo'lib, xalq tabobatiga murojaat qilish holatlari keng tarqaldi. Shu davrda xotin-qizlar nafaqat oilada onalik vazifalarini bajarish, balki tibbiy sohada ham faol ishtirok etishdi. Xotin-qiz shifokorlar aholi salomatligini muhofaza qilishda va tibbiy xizmatni qayta tiklashda hal qiluvchi rol o'ynadilar. Ular og'ir geografik va ijtimoiy sharoitlarga qaramasdan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatib, profilaktik tadbirlarni amalga oshirdilar.

O‘zbekistonda tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimida xotin-qizlar faoliyatini o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, aholi sog‘ligini ta‘minlash va demografik barqarorlikni saqlash muhim hisoblanadi. Ikkinchidan, urushdan keyingi yillarda tibbiyot tizimidagi muammolar, kadrlar tanqisligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hozirgi kunda ham sog‘liqni saqlash sohasida istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston va respublika viloyatlaridagi tibbiy infratuzilma va ekologik omillar ayollar hamda bolalar salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Xotin-qiz shifokorlar ushbu muammolarni bartaraf etishda fidokorona mehnat qilib, profilaktik tibbiyot va aholiga tushuntirish ishlarini keng qamrab olishga hissa qo‘shdilar.

Shu tariqa, urushdan keyingi davrda xotin-qizlar faoliyatini o‘rganish nafaqat tarixiy jihatdan muhim, balki hozirgi kunda mamlakatning tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish hamda ona-bola salomatligini muhofaza qilishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Tadqiqot mavzusini yoritishda arxiv hujjatlari, rasmiy statistik ma‘lumotlar, davriy matbuot materiallari hamda biografik manbalar muhim ahamiyatga ega. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sovet davri sog‘liqni saqlash tizimiga oid tadqiqotlarda asosiy e‘tibor davlat siyosati va uning natijalariga qaratilgan. Rasmiy nashrlarda tibbiyot sohasidagi yutuqlar, xususan, tibbiy muassasalar tarmog‘ining kengayishi, shifokorlar sonining ortishi va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining o‘sishi ta‘kidlanadi. Biroq bunday manbalarda ko‘pincha mavjud muammolar, ayniqsa chekka hududlardagi infratuzilma kamchiliklari to‘liq ochib berilmagan.

Bunda asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat arxivi hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8]. Ularda tibbiyot muassasalarining real holati, kadrlar tanqisligi, moliyaviy ta‘minot muammolari hamda rejalarining bajarilishidagi uzilishlar haqida aniq ma‘lumotlar keltirilgan. Davriy matbuot materiallari, jumladan, gazeta va jurnallardan “Yosh leninchi”, “Sovet O‘zbekistoni”, “Медицинская газета”, “Медицинский работник” kabilar mavzu doirasida muhim qo‘shimcha manba hisoblanadi. Ularda ilg‘or shifokorlar faoliyati keng yoritilgan. Biroq matbuot materiallari ko‘proq targ‘ibot xarakteriga ega bo‘lib, muammolarga nisbatan tanqidiy yondashuv cheklanganini ham hisobga olish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda esa masalaga nisbatan nisbatan xolis va tahliliy yondashuv kuzatiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda sovet davri sog‘liqni saqlash tizimi bir tomondan ijtimoiy kafolatlar yaratgan tizim sifatida baholansa, ikkinchi tomondan, uning markazlashgan boshqaruvi, resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik va hududlar o‘rtasidagi tafovutlar tanqidiy tahlil qilinadi. Ayniqsa, Qoraqalpog‘istondagi ekologik inqiroz, xususan, Orol dengizi muammosining aholi salomatligiga ta‘siriga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavzuni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari:

O‘zbekiston tibbiyotida xotin-qizlar faoliyati aholi salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Turli malakali mutaxassislar tibbiy bilim va malakasini amaliyotda samarali qo‘llash qobiliyati bilan aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy yordamning sifati va doimiyligini ta‘minlashda hissa qo‘shdilar [6, B.421; 11, C.3]. Ularning faoliyati urushdan keyingi davrdagi murakkab tibbiy va ijtimoiy sharoitlarda sog‘liqni saqlash tizimini barqarorlashtirish va yanada samarali xizmat ko‘rsatishda salmoqli o‘ringa ega bo‘ldi. Masalan, murakkab sharoitda pediatr shifokor Musallam Sharafutdinova kabi mutaxassislar aholi salomatligini saqlash va tibbiy xizmatni tiklash jarayonida muhim o‘rin tutgan edi [6, B.421; 7, B.424, 9, C.1].

Musallam Sharafutdinovanning shifokorlik kasbini tanlashida uning oilaviy sharoiti, xususan, uzoq yillar og‘ir xastalikdan aziyat chekkan onasini davolash istagi hal qiluvchi omil bo‘lgan. U tibbiyot bilim yurtini tamomlab, mehnat faoliyatini Urgut tumanining tog‘li hududida boshladi [9, C.1]. Mazkur hududdagi qiyin geografik va infratuzilmaviy sharoitlar sababli shifokor bemorlarga ot minib borishga, dorilarni esa Samarqand shahridan mustaqil ravishda olib kelishga majbur bo‘lgan [1, B.8; 9, C.1]. Bu esa uning kasbiga bo‘lgan fidoyiligi va mas‘uliyatini namoyon etadi. Shu bilan birga, u o‘z malakasini oshirish maqsadida tibbiyot institutida tahsilni davom ettirdi.

Oilaviy sharoitda, kichik yoshdagi farzandlar bilan bir vaqtda o'qish va ishlash jarayoni ancha murakkab kechgan. Turmush o'rtog'ining fojiali vafoti esa uning hayotidagi eng og'ir sinovlardan biri bo'ldi. Shunga qaramasdan, u farzandlari va kasbiy burchiga suyangan holda faoliyatini davom ettirdi. Institutni tamomlagandan so'ng uchastka vrachi sifatida ishlab, keng hududga xizmat ko'rsatgan va ko'pincha bir kunda 10 kilometrgacha masofani bosib o'tishga to'g'ri kelgan [9, C.1].

1979-yildan boshlab Samarqand shahridagi 1-sonli bolalar poliklinikasida pediater sifatida faoliyat yuritib, bir vaqtning o'zida maktabgacha ta'lim muassasalarida ham tibbiy xizmat ko'rsatgan. U shaharda ishlashiga qaramasdan, avvalgi ishlagan uchastkasi bilan aloqani uzmagani va aholi tomonidan katta ishonchga sazovor bo'lgan [1, B.8; 9, C.1]. Ota-onalar uni farzandlarini ko'rikdan o'tkazish uchun maxsus taklif qilgan hollarda ham u hech qachon rad etmagan.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimini takomillashtirishda tibbiyot xodimlarining, ayniqsa, asosiy qismi xotin-qizlardan iborat bo'lgan shifokorlar va o'rta tibbiy xodimlarning hissasi katta bo'ldi. Ular sog'liqni saqlash tizimining ilg'or va fidoyi vakillari sifatida namoyon bo'ldilar. Bu jarayonda Samarqand shahridagi pediater Musallam Sharafutdinova, Pop tumani akusher-kasi Hadicha Axmedova, Jizzax viloyati tez yordam bo'limi feldsheri Mariya Chubarova, Buxoro shahri pediatri Janna Arutyunova, O'rtachirchiq tumani akusher-kasi Zahida Begmatova kabi mutaxassislar salmoqli hissa qo'shdilar [3, B.4; 7, B.424].

Shifokor Enaxon Mahmudova qishloq tibbiyotini tashkil etish va rivojlantirish jarayonida rahbar-shifokor sifatida mahalliy aholi o'rtasida tanildi [10, B.4]. 1950-yilda Toshkent viloyati Orjonikidze rayonidagi Qibray qishloq kasalxonasi va bolalar konsultasiyasi rahbari bo'lib ishlagan edi. Uning rahbarligida qishloq kasalxonasining tashkiliy va moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Jumladan, stasionar o'rinlar soni oshirildi, rentgen apparati o'rnatilgan bo'lib, ixtisoslashtirilgan tibbiy xonalar tashkil etildi. Shuningdek, xirurgiya va tug'ruq bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yilib, aholiga zarur ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatni mahalliy darajada ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Qishloqning markazidan uzoq hududlarda tibbiyot punktlari ochilishi aholining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan edi.

Enaxon Mahmudova faoliyatida profilaktik tibbiyotga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, aholini muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash, zarur hollarda bemorlarni sanatoriy-kurort muassasalariga yuborish tizimi joriy etilgan. Bu esa kasallanish darajasini kamaytirish va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilgan. U o'z davrida yosh mutaxassislarni tayyorlash va ularni amaliyotga yo'naltirishda ustoz sifatida faol ishtirok etgan. Shifokorning faoliyati faqat tibbiy xizmat bilan cheklanib qolmasdan, jamoatchilik ishlarida ham namoyon bo'lgan. U mahalliy va viloyat darajasidagi vakillik organlariga deputat etib saylangan. Kasbiy xizmatlari davlat tomonidan e'tirof etilib, "Shavkatli mehnati uchun" medali bilan taqdirlangan [10, B.4]. Enaxon Mahmudovaning faoliyati qishloq sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish va profilaktik yo'nalishni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bilan tavsiflanadi.

Qoraqalpog'istonda ona va bola salomatligini muhofaza qilish masalasi uzoq vaqt davomida o'z dolzarbligini saqlab qoldi. Bu sohada o'tkazilgan yig'ilish va anjumanlarda muammolar muntazam ravishda muhokama qilingan bo'lsa-da, amaliy natijalarga erishishda jiddiy kamchiliklar kuzatildi. Jumladan, Sovet bolalar jamg'armasi doirasida ham bolalar salomatligiga oid masalalar ko'tarilgan [2, B.5; 5, B.4; 12, C.1], ammo ularning samarali yechimi ta'minlanmagani tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Aynan shunday murakkab sharoitda Qoraqalpog'iston ASSR Bolalar shahar kasalxonasi bo'lim boshlig'i, jamoat arbobi sifatida Bibioysha Xo'jambergenovaning faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. U nafaqat shifokor sifatida bemorlarga yordam ko'rsatdi, balki respublikadagi tibbiy muammolarni chuqur tahlil qilgan holda ularni yuqori davlat organlari darajasiga olib chiqdi. Xo'jambergenova o'z chiqishlarida ona va bola salomatligini muhofaza qilish tizimidagi kamchiliklarni ochiq-oydin ko'rsatib berib, ularning asosiy sabablarini sog'liqni saqlash sohasiga yetarli e'tibor qaratilmagani bilan izohladi [12, C.1].

Qoraqalpog'istonda tug'ruq muassasalarining yetarli darajada emasligi sababli ayollar sifatli tibbiy xizmat olish uchun boshqa hududlarga, ayniqsa Toshkent shahriga murojaat qilishga majbur bo'lgan [8, B.427]. Nukus shahridagi tug'ruqxonalarda sanitariya-gigiyena sharoitlari talab

darajasida bo‘lman, palatalarda ortiqcha zichlik, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimidagi uzilishlar esa vaziyatni yana-da og‘irlashtirgan [7, B.424]. Bu holat respublika tumanlaridagi ko‘plab tug‘ruq bo‘limlariga ham xos bo‘lib, tug‘ruq va pediatriya muassasalarini qurish rejalarining muntazam bajarilmasligi muammoni chuqurlashtirgan. Bu kamchiliklar Bibioysha Xo‘jambergenova tomonidan bir necha bor tanqid qilingan. U o‘z nutqlarida respublikada bironta ham namunaviy tug‘ruqxona yoki bolalar kasalxonasi mavjud emasligini, ko‘plab tibbiy muassasalar zamonaviy talablarga javob bermasligini ta‘kidlagan. Shuningdek, u tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirishga ajratiladigan mablag‘larning samarali yo‘naltirilmayotganini ham keskin tanqid qilgan. 1987-yilga kelib tug‘ruqxonalarda 700 o‘ringa bo‘lgan ehtiyoj, tug‘ilish darajasining yuqoriligi (har ming aholiga 43,7 nafar) bilan birgalikda, vaziyatni yana-da og‘irlashtirdi [12, C.1]. Mavjud infratuzilmaning zaifligi sababli hatto ma‘muriy binolarni tibbiyot ehtiyojlari uchun moslashtirishga to‘g‘ri kelgan, ammo bu choralar kutilgan natijani bermagan [12, C.1]. Xo‘jambergenova bu holatni tizimli yondashuv yetishmasligi va sohaga strategik e‘tiborning kamligi bilan bog‘lagan.

Feldsher-akusher punktlarining katta qismi binolar bilan ta‘minlanmagani yoki avariya holatida bo‘lgani tibbiy xizmat sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan [12, C.1]. Ayrim hollarda tibbiyot xodimlari bemorlarni o‘z uylarida qabul qilishga majbur bo‘lgan [12, C.1]. Bu holat ham Bibioysha Xo‘jambergenova tomonidan ko‘tarilgan asosiy muammolardan biri bo‘lib, u qishloq joylarda tibbiy xizmatni tubdan isloh qilish zarurligini ta‘kidlagan. Ekologik omillar ham aholi salomatligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Orol dengizi sathining pasayishi va ekologik inqiroz natijasida hosil bo‘lgan tuz va chang aralashmalari aholi salomatligiga xavf solgan. Xususan, ayollar va bolalar orasida kasalliklar ko‘paygan, 1986-yildagi tekshiruvlarga ko‘ra, ayollarning 80 foizidan ortig‘i kamqonlikdan aziyat chekkan [12, C.1]. Xo‘jambergenova bu holatni faqat tibbiy muammo emas, balki ijtimoiy-ekologik inqiroz sifatida baholab, kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligini ilgari surgan.

Sanoat korxonalaridagi noqulay mehnat sharoitlari, ayniqsa paxta sanoatidagi yuqori chang miqdori ham aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan [12, C.1]. Bu korxonalarda ishlovchilarning katta qismi xotin-qizlardan iborat bo‘lishiga qaramasdan, ular uchun gigiyena va sog‘lomlashtirish sharoitlari yaratilmagan. Bu masala ham Bibioysha Xo‘jambergenova tomonidan ko‘tarilgan muhim ijtimoiy-tibbiy muammolardan biri hisoblanadi. Demografik omillar, jumladan tez-tez tug‘ilish holatlari bolalar salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Oila rejalashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar yetarli samara bermagan [12, C.1]. Bunday holatni bartaraf etishda B.Xo‘jambergenova profilaktik tibbiyotni kuchaytirish, aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini tizimli ravishda olib borish zarurligini ta‘kidlagan edi.

Kadrlar tanqisligi muammosi esa tizimdagi eng og‘ir masalalardan biri bo‘lib qoldi. 1987-yilda akusher-ginekologlar, pediatrlar va tor ixtisoslik mutaxassislar yetishmasligi tibbiy xizmat sifatini pasaytirgan [12, C.1]. Ayrim tumanlarda bir necha o‘n ming aholiga atigi bir necha shifokor xizmat ko‘rsatgan. Bu holat tibbiyot xodimlariga tushayotgan yuklamani keskin oshirgan. Xo‘jambergenova bu muammoni hal etish uchun kadrlar tayyorlash va ularni hududlarda saqlab qolish siyosatiga alohida e‘tibor qaratish zarurligini ilgari surgan. Umuman olganda, Bibioysha Xo‘jambergenovanning faoliyati Qoraqalpog‘istonda ona va bola salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot infratuzilmasini yaxshilash va tizimdagi muammolarni ochiq ko‘tarish orqali ularni hal etishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning shifokorlik burchiga sadoqati, jamoatchilik oldidagi faol pozitsiyasi va tashabbuskorligi respublika tibbiyoti rivojida muhim o‘rin tutgan.

Xulosa:

O‘zbekistonda xotin-qizlarning tibbiyotidagi faoliyati nafaqat tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirishda, balki ona va bolalar salomatligini muhofaza qilishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Urushdan keyingi yillardan boshlab ular respublika tibbiyotidagi qiyin ahvolni yengishda fidoyilik ko‘rsatib, tibbiyot punktlari, poliklinikalar va qishloq tibbiy xizmatlari orqali aholiga doimiy yordam ko‘rsatdilar. Shu bilan birga, ba‘zi hududlarda tibbiy infratuzilma va kadrlar yetishmovchiligi, profilaktika tadbirlarining cheklanganligi, hamda reproduktiv salomatlik haqidagi

ma'lumotning pastligi kabi muammolar mavjudligi saqlanib qoldi. Shu bois, xotin-qiz mutaxassislarining ilmiy va amaliy faoliyatini rivojlantirish, tibbiy kadrlarni tayyorlash va aholi orasida sog'liqni saqlash hamda profilaktika ishlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning kasbiy mas'uliyati va fidoyiligi O'zbekiston tibbiyotida barqaror va sifatli tibbiy xizmatni ta'minlashda asosiy omil hisoblandi.

Ona va bola salomatligini muhofaza qilish sohasidagi muammolar dolzarb bo'lib qoldi, chunki mavjud infratuzilma va kadrlar salohiyati bu ehtiyojni to'liq qamrab olinmagan edi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda sanitariya-gigiyena sharoitlarining past darajada bo'lishi, ichimlik suvi sifatining yomonligi va ekologik muammolar aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday sharoitda sog'liqni saqlash tizimi bir tomondan institusional jihatdan shakllanish va rivojlanish jarayonini boshdan kechirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, u mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro'yxat,1382-ish, 8-varaq.
2. O'z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro'yxat,1388-ish, 5-varaq.
3. O'z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro'yxat,1390-ish, 4-varaq.
4. O'z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro'yxat,1392-ish, 12-varaq.
5. O'z ITTH MA, M-372-fond, 1-ro'yxat,1394-ish, 19-varaq.
6. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2126-ish, 421-varaq.
7. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2126-ish, 424-varaq.
8. O'z MA, R-837-fond, 41-ro'yxat, 2126-ish, 427-varaq.
9. Денисевич О. Любимое дело // Медицинская газета, 1979. №4. – С.1.
10. Zokirova S. Doktor opamiz // Yosh leninchi, 1961, №153. – В.4.
11. Пирадова М. Ценный опыт // Медицинская газета, 1957. №97. – С.3.
12. Хожамбергенова Б. Для блага детей // Медицинская газета, 1987. №84. – С.1.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000